

N.NORQOBILOV VA S.TOMPSON IJODIDA ALLEGORIK VA REALISTIK QARASHLAR

Dilshoda Choriyeva

ToshDO‘TAU talabasi

dilshodaumarova52@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” va Ernest Seton – Tompsonning “Lobo” hikoyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida hayvon qahramonlar orqali inson – tabiat munosabatlari, ijtimoiy xatti - harakatlar hamda badiiy strategiyalar tahlili turadi. Norqobilov asarida hayvonlar allegorik obraz sifatida insoniy axloq, ma’suliyat va jasoratni aks ettiradi, dramatik va metaforik yondashuv yordamida ijtimoiy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, Tompson hikoyasida hayvonlarning xatti- harakatlari ekologik qonuniyatlar va tabiiy reflekslar asosida realistik tarzda namoyon etiladi, hududiy ustunlik va resurslarni boshqarish strategiyasi markazga qo‘yiladi. Tezisda ikki yozuvchining badiiy yondashuvlari, allegorik va ekologik kontekstlari, shuningdek antropomorfizm va biologik harakatlar orqali inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik solishtiriladi. Tadqiqot natijalari hayvon obrazlarining o‘zbek va xorijiy adabiyotdagi vazifasi, badiiy metodlari va ijtimoiy – axloqiy ma’nolarini o‘rganishda ilmiy ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *allegoriya, realistik, evolutsiya, semantik, dramatik, romantizatsiya, metafora.*

Bugungi o‘zbek nasrining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Normurod Norqobilov o‘ziga xos adabiy uslubga ega. U davrining muhim ijtimoiy va madaniy jarayonlarini bevosita tasvirlamasdan, obraz va xarakterlarni yaratishda an’anaviy hamda yangicha yondashuv orqali mahoratini namoyon etadi. Adib asarlarining qahramonlari atrofidagi odamlarni, jamiyatni, umuman olganda yozuvchi nuqtai nazarida, insoniyatning turli xatti – harakati, qilmishi, illatlari, razilliklari, ahloqiy ma’naviy qiyofasi ochib beriladi. Albatta yozuvchi bularni o‘ziga xos obrazlar dunyosi orqali ifoda etadi. Obrazlarning bu xilma – hilligi adibning ijodiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. U yaratgan hikoyalarda qahramonlar ko‘lami insondan tortib hayvonot va hatto nabotot olamigacha kengayadi. Yozuvchi, xoh jonivor bo‘lsin, xoh daraxt, har bir personajni o‘z nigohi orqali kuzatadi, ularning xatti – harakatlari, tabiati va tabiiy muhiti bilan bog‘liqligini tahlil qiladi. Obrazlar xilma – xilligi haqida so‘z borganda esa N.Norqobilovning ijodkor sifatida shakllanishiga e’tibor qaratish lozim.

Yozuvchi ijodining ilk namunalarini ertaklar yozishdan boshlangani haqida shunday yozadi; “kaminaning yozuvchilikka havas va ishtiyoqi bolalikda ertaklar tufayli yuzaga kelgan desam sira yanglishmayman, - deya yozadi adib. Keyin – keyin esa tengqurlarim orasida o‘zim ertak aytishni odat qildim. Ular qolib, katta yoshdagi bolalar og‘zimga tikilganini ko‘rib hayron qolardim va bilganlarim tugab qolgudek bo‘lsa, o‘zim ertak to‘qiy boshlardim. To‘qigan ertaklarimda yovuzlik va yorug‘likdan tashqari, hayvonot dunyosiga nisbatan bo‘lgan munosabatim aks etardi. So‘ng menda ularni qog‘ozga tushirish fikri paydo bo‘ldi. Buning qarangki, taqdir jonivorlarga nisbatan munosabatimni o‘zgachaligini sezganday, necha va necha bor meni bo‘rilarga duch qildi. Itlar haqida gapirmasam ham bo‘ladi. Ularning ovozdanoq nima demoqchi ekanligini sezadigan bo‘ldim. Chunki, ular menga shunchaki it emas, tabiiy uyg‘unlikning jonli bir bo‘lagi edi. Sadoqatni o‘shalarda ko‘rdim, mardlikni bo‘rilarda uchratdim. Qishning qirchillama kunlaridan birida qirning tor o‘zanida ularning to‘rtasiga to‘satdan ro‘baro kelgan va azbaroyi qo‘rqqanidan yelkasidagi miltiqni olishga ham qurbi yetmagan yigitcha men edim.”[Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik jurnali 2023:14]

E.Seton – Tompson (1860 – 1946) asarlari xorijiy adabiyotshunoslar tomonidan XIX asr boshlaridagi realistik adabiyotning eng yorqin va san‘at jihatidan yuqori baholangan namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. Aslida ingliz millatiga mansub bo‘lgan Seton – Tompson umrining katta qismini Kanada va Aqshda o‘tkazgan, oxir – oqibat Amerika fuqaroligini olgan. Shu sababli uni ba‘zan amerikalik yozuvchi sifatida ham ko‘rsatish mumkin. Uning ijodini tadqiq qilish katta ilmiy ahamiyatga ega, chunki realistik uslubdagi asarlari XX asrning birinchi yarmida Kanada va Aqsh inglizzabon adabiyotidagi estetik yuksaklik, o‘ziga xoslik va tabiatni batafsil va xilma – xil tasvirlash an‘analarini yaqqol namoyon etadi.

Uning ommaviy mashhurligi 1894 yilda keng tarqaluvchi Scribner’s Magazine jurnalida chop etilgan birinchi hikoyasi – “Lobo, the king of Currampaw” (“Lobo, Kurrapov vodiysining qiroli”) bilan boshlandi. U ovlab tutgan ulkan bo‘ri haqidagi ushbu dramatik hikoya darhol katta muvaffaqiyat qozondi. (“Qizig‘i shundaki, Loboni o‘ldirish tajribasi Setonning qarashlarini tubdan o‘zgartirgan edi; keyinchalik u shunday yozgan: “Shundan beri mening eng samimiy istagim – odamlar ongiga shuni singdirishki; mahaliy yovvoyi jonzorlarimizning har biri o‘z – o‘zidan bebaho merosdir, bizning esa ularni yo‘q qilishga yoki farzandlarimiz uchun yo‘qotishga hech qanday haqqimiz yo‘q.”)[Literary Review of Canada, a journal of ideas, The Importance of Ernest:2014]

U nafqat tabiatshunos va hikoyachi sifatida, balki Shimoliy Amerikaning tub aholisining siyosiy, madaniy va ma‘naviy huquqlarini himoya qiluvchi shaxs sifatida ham tanilgan. Ernest Tompsonning asarlari adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning badiiy uslubi

tabiat va hayvonot olamining mukammal tasvirlari orqali inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o‘z asarlarida nafaqat hayvonlarning jasoratini, balki ularning ichki dunyosini ham chuqur ochib beradi. Shu bilan birga, uning ijodida tabiat manzaralari, geografik xususiyatlar va xalq og‘zaki ijodining elementlarini birlashtirib o‘quvchiga boy, mazmunli va haqiqatga yaqin dunyo taqdim etiladi.

E. Seton – Tompson hayvonlar hayotini tasvirlashga bag‘ishlangan adabiy yo‘nalishning shakllanishida asosiy o‘rin tutadi va bu sohada poydevor yaratgan ijodkorlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning ijodi turli mamlakatlarda faoliyat yuritgan ko‘plab hayvonot mavzusidagi yozuvchilar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. U umri davomida hayvonlar tabiatini, ularning xulq – atvorini ham ilmiy, ham badiiy yondashuv asosida tasvirlagan. Tabiat va jonivorlar haqidagi ko‘plab asarlarga qaramay, hech bir yozuvchi Seton – Tompsonning kuzatuvchanligi, voqeani hayajonli tasvirlash mahorati va badiiy aniqligidan osha olmadi; adabiyotda uning o‘rnini to‘liq egallay oladigan ijodkor paydo bo‘lmadi.[Tog‘ay Murod. E.Tompson kitobiga so‘z boshim 2010:8]

Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” va Ernest Tompsonning “Lobo” hikoyalariga nazar solsak, ikkala asar ham hayvon obrazlari orqali inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochgan, lekin turlicha badiiy va ilmiy yondashuvlarni namoyon qilgan. N.Norqobilov va E.Tompson turli adabiy maktablarga mansub bo‘lsada ikkisini birlashtiruvchi umumiy nuqta – hayvon obrazlaridan badiiy konsepsiya yaratish mahoratidir. Bu ikki hikoya – “Oqbo‘yin” va “Lobo” – hayvon obrazi uning badiiy evolyutsiyasini ochib beradi: biri allegoriya vositasida, ikkinchisi realistik – etologik asosda.

Allegoriya – ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib voqea hodisa yoki narsa buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz) ni qo‘llashdir, ya’ni noaniq bo‘lgan tushunchasi (konseptni) ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Shuningdek, allegoriya mavhum tushuncha yoki g‘oyani aniq obraz vositasida ifodalaydi. Masalan “bo‘ri” so‘zning – yomonlik yovuzlik; “tulki” so‘zining – ayyorlik ifodasi uchun qo‘llanishi allegoriyaning dastlabki misollari bo‘ladi. Simbolizim, allegoriya va mif tushunchalari ko‘p holatlarda yonma yon qo‘yiladi. Chunki bu uch badiiy tasvir vositalari ham yozuvchiga o‘z fikrini aniq soda va ahloqiy holatda tushuntirishga imkon beradi.

Shu sababli, Oqbo‘yin obrazi, birinchi navbatda, hayvon emas – axloqiy kategoriyadir. Norqobilov uning xatti – harakatlarini tabiiy instinktlar bilan emas, balki ma’naviy ma’suliyat va fidoyillik bilan bog‘laydi. Oqbo‘yin o‘z olamini himoya qiluvchi, yovuzlikka qarshi kurashuvchi “oqlik” timsoli bo‘lib maydonga chiqadi. Bu – Sharq adabiyotining an’anaviy allegorik yondashuvi bilan uyg‘un. Oq rang – ma’naviy tozalik, halollik, jasorat

ifodasi. Shuning uchun Oqbo‘yin obrazida rangning o‘zi ham semantik yuk ko‘taradi. U asarida hayvonlar va insonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik dramatik va allegorik tarzda tasvirlanadi. Oqbo‘yin bo‘rilarni kuzatib, hududiy qonuniyatlar va ijtimoiy axloqiy prinsiplarni o‘rganadi. Hayvonlarning harakati inson tabiatidagi ma’suliyat, jasorat va adolatni aks ettiradi. Bu yondashuv orqali yozuvchi hayvonlar orqali insonning axloqiy va ijtimoiy ma’suliyatini allegorik tarzda namoyon qiladi.

Realistik adabiyot – bu janr real hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar va hayotiy obrazlarga asoslangan, unda fantaziya, ilmiy fantastika yoki g‘ayritabiiy unsurlar mavjud bo‘lmaydi. Hikoyalar aniq real voqealardan olinmagan bo‘lsa ham, ular haqiqatda yuz berishi mumkin bo‘lgani uchun o‘quvchiga yaqin va tushunarli bo‘ladi. Odatda, realistik adabiyot yirik, global mojarolar emas, balki shaxs yoki kichik guruhlarining ichki o‘sishi, psixologik taraqqiyoti va kundalik hayotidagi kurashlarga e’tibor qaratadi. Realistik adabiyot ko‘pincha zamonaviy yoki tarixiy adabiyot bilan kesishadi, bu esa janrning turlicha, talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. Janrda ko‘tariladigan umumiy – personajning shakllanishi, insoniy tajriba, ruhiy o‘sish va o‘smirlikdan voyaga yetish jarayonlari kabi masalalaridir.

Shu bois, Seton – Tompson Lobo obrazi hech qachon axloqiy yoki ramziy ma’noga ko‘chirilmaydi. U – biologik birlik, yovvoyi tabiatning bir bo‘lagi. Lobo o‘z hududini, to‘dasini himoya qiladi, ov strategiyasini instinkt asosida tanlaydi. Bo‘rilar judayam sadoqatli bo‘lishadi, aynan shu hislatni Lobo rafiqasi Blankani yo‘qotgani timsolida ko‘rishimiz mumkin. Albatta, jonivorlar ham sevadi, sadoqat ko‘rsatadi, azob chekadi. Emishki, sher quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa yuragi yorilib o‘lar emish. U bir paytning o‘zida ham quvvatidan, erkidan, ham juftidan ayriladi. Tompson hikoyasida shunchaki bo‘rilar haqida emas, balki inson qalbining uyg‘onishi, tabiatga nisbatan mehr va hurmatning kuchi haqida hikoya qiladi. Lobo obrazi orqali Tompson bizga shunday degandik; Tabiatni yengish emas, uni sevish kerak. Lobo obrazida romantizatsiya yoki allegorik axloqiy qatlam yo‘q; Muallif hayvonning tabiiy tabiatini kuzatuvchi tabiatshunos sifatida tasvirlaydi. Lobo qanchalik aqilli bo‘lmasin, u baribir tabiat qonunlariga to‘la bo‘ysungan jonzotdir. Yozuvchi hikoyasida inson aralashuvi tabiat qonuniyatlariga ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Hikoya hayvonlar va inson o‘rtasidagi ekologik konfliktni ilmiy kuzatuv nuqtai nazaridan ochib beradi. Shu nuqtai nazardan, Lobo asarida inson va tabiat munosabatlari ekologik va realistik kontekstda ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Xoliqovich. O‘zbekiston: til va madaniyat// Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik. – Toshkent, 2023, - B.14.
2. Allegorik vositalar dunyo tilshunoslari talqinida, International Journal of Philosophical Studies and Social Science. B.124 – 126.
3. The Importance of Ernest// Literary Review of Canada: A Journal of Ideas. – 2014, September.
4. Mahmadiyor. Asadov. Ijodkor shaxs tabiati yoxud poetik taffakkur modeli// Uzbekistan: Language and Culture. – 2025.
5. N. Norqobilov. Oqbo‘yin. – Toshkent, 2013.
6. Xayrullayev, A. (2025, July). НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
7. Xayrullayev, A. (2024). N. NORQOBIL HIKOYALARI KOMPOZITSIYASI. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
8. Asadov, M. (2025, July). HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
9. Asadov, M. (2023). SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO ‘STMUHAMMAD. In Conferences (Vol. 1, No. 1).